

---

## Oltiariq tumani tarixi

**Oltiariq tumani** - Farg'ona viloyatidagi tuman. 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan. Jan.dan Farg'ona, shim.dan Namangan viloyati, g'arb va shim.g'arbdan Rishton, Buvayda hamda Bag'dod, shim.-sharkdan Oxunboboyev, Yozyovon tumanlari va jan.dan Qirg'izistonning Qadamjoy tumani bilan chegaradosh. Maydoni 0,63 ming km<sup>2</sup>. Aholisi 220 ming kishi (2022). Oltiariq tumanida 1 shahar (Tinchlik), 1 shaharcha (Oltiariq), 72 mahalla fuqurolar yeg'ini bor. Markazi — Oltiariq shaharchasi.

Tabiati. Tuman hududining jan. adirlar, soylarning yoyilmalari, kumli sho'rxoklardan iborat. Adirlar va adir etaklarining balandligi 500–700 m. Bu yerlar tog'lardan oqib tushadigan ko'p soylarning qad. konglomeratlaridan — So'x svitasi komplekslaridan tarkib topgan (qalinligi 80–200 m). Adirlarning Markaziy Farg'ona tekisliklariga qo'shilib ketgan qanotlari yoyilma ko'rinishida bo'lib, toshli-shag'alli, gilli va qumoq jinslardan iborat. Ularning hammasi antropogen davrining turli yoshdagi yotqiziqlaridir. Shim. qismining relyefi keng tekislik bo'lib, yuzasini qum, gil, o'nlab m chuqurlikda toshli-shag'alli jinslar qoplab yotadi. Ularning tagida 400 m kalinlikda paleogen davrining karbonatli dengiz cho'kindilari bor. Iklimi quruq, sershamol, bahor va kuzda shamol bo'ladi (tezligi sekun-diga 12–15 m). Yillik o'rtacha temperatura 18°, iyulda 31—40°, eng yuqori temperatura 55°, yanvarda o'rtacha temperatura —2°, eng past temperatura —23°. Vegetatsiya davri 210 kun. Yillik yogin 100–180 mm. Adir va adir etaklarida och bo'z, to'q bo'z, qo'ng'ir bo'z, markaziy va shim. qismida o'tloqi, o'tloqibotqoq sho'rxok tuproklar tarqalgan. Yovvoyi o'simliklardan adirlarda shuvoq, bahorda efemer va efemer-oidlar, markaziy va shim. qismidagi qumlilarda sho'ra, yulg'un, selin, yan-toq va boshqa o'sadi. Yovvoyi hayvonlardan bo'ri, quyon, tulki, olmoxon, tipratikan, o'qilon, chiporilon, burgut, boyo'g'li, kalxat, qiyg'ir va boshqa bor. Tumanning ekin maydonlari Oltiariqsoy, Jan. Farg'ona, Katta Farg'ona, Katta Andijon, So'x-Shohimardon kanallaridan suv oladi. „Qo'rg'ontepa“, „Keng ko'l“ suv omborlari qurilgan. Cho'l qismida yirik mineral suv havzasi bor.

2022-11-14 11:31:51